SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 24-oktabr | 319-8-108-Q/24 | Oltinsoy tuman hokimligi

Surxondaryo viloyat hokimining 2024-yil 21-oktabrdagi “Surxondaryo viloyati hududlarida maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini belgilash to‘g‘risida”gi 694-8-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF–5-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarorlariga asosan hududlarda maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko‘mish bo‘yicha xizmatlarni takomillashtirish, hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Surxondaryo viloyat hokimining 2024-yil 21-oktabrdagi “Surxondaryo viloyati hududlarida maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini belgilash to‘g‘risida”gi 694-8-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi viloyat hududiy boshqarmasining 2024-yil 11-iyundagi 87-son, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 15-apreldagi 22-12-10/175-son hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish viloyat hududiy boshqarmasining 2024-yil 2-maydagi 01-05/1572-son xulosa xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan hududiy poligonlarda maishiy

chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha to‘lovlar tariflari, narxlarni tartibga soluvchi organ bilan kelishgan holda quyidagicha:

a) 1 metr kub chiqindiga taklif etilgan 24493,48 so‘m kamaytirilib, 18 200 (o‘n sakkiz ming ikki yuz)so‘m;

b) 1 tonna chiqindiga taklif etilgan 59519 so‘m kamaytirilib 44 175 (qirq to‘rt ming bir yuz yetmish besh) so‘m (QQS bilan birga) cheklangan tariflar belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. “Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov), tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (F.Safarov), tuman Tibbiyot birlashmasi (A.Mo‘minov), tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (R.Jummayev) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda aholi keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etish tavsiya etilsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati (B.Tillayev) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi devonxona bo‘limi mudiri (J.Siddiqov)ga mazkur qaror nusxasini manfaatdor tashkilotlarga yuborish vazifasi yuklatilsin.

7.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Mo‘minov zimmasiga yuklansin.

8.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Oltinsoy tumani hokimi **B.O.Maxmatrayemov**